

**SHAXSLARARO MULOQOT TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI
OMIL SIFATIDA**

Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi

International school of finance technology

and science instituti stajor-o'qituvchisi

Elektron pochta: Xurshidyulchiboyev@gmail.com

Annatatsiya: Shaxslararo munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxs shakllanadi, rivojlanadi va ijtimoiylashadi. Shaxslararo munosabatlar odamlar orasida amalga oshadigan o'zaro munosabat, muloqot va muomala jarayoni hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada aynan o'smir yosh davridagi shaxslararo munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, shaxs, o'smir, ta'sir, o'quvchi, munosabat, individ, o'qituvchi, ehtiyoj, taraqqiyot, ijtimoiy munosabat.

INTERPERSONAL COMMUNICATION AS A FACTOR THAT INCREASES THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Annotation: interpersonal relationships are processes of interaction in which the individual is formed, developed and socialized. Interpersonal relationships are the process of interaction, communication and treatment that occurs among people. In our developing society, special attention is paid to the issue of raising a healthy generation, perfect people. This article focuses specifically on interpersonal relationships in the age of a teenager.

Keywords: communication, personality, teenager, influence, student, attitude, individ, teacher, need, progress, social attitude.

Kirish. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatsiz sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish mushkul. Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlik davrida muloqot yetakchi, yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. [1, 3-b]

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish nafaqat psixologiya balki pedagogika fanida ham eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning bilim egallashi va ilm olishga bo'lgan qiziqishi dastlab tengqurlari va o'qituvchilari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarinig qay darajada shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

Date: 17th June-2025

Shaxslararo munosabatlar masalasi yurtimizda ko‘plab psixolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. V.M.Karimova E.A.A’zamxo‘jayev, M.G.Davletshin, E.A.G‘oziyev, va G‘.B.Shoumarov va boshqalar o‘z ishlarida mazkur masalaga alohida e’tibor qaratgan.

V.M.Karimova o‘z ishlarida shaxslararo munosabatlarning inson taraqqiyotidagi o‘rnini va muloqotning psixologik vositalarini alohida o‘rgangan.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari G.J.Berdiyeva tomonidan tadqiq etilgan. Muallif o‘z tadqiqotini aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarda olib boradi. Aqliy rivojlanganlik darajasining shaxslararo munosbatlarga ta’siri va ahamaiyatini keng doirada o‘rgangan.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar muammosi ko‘plab olimlarning qiziqishini uyg‘otmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbliyi ko‘p yillar davomida pasaymadi, chunki vaqt o‘tgan sari avlodlar almashinuvni jarayoni sodir bo‘ladi va ba’zi qiziqishlar, qadriyatlar o‘z-o‘zidan o‘zgaradi, shuningdek bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham o‘zgaradi.

O‘quv jamoalarida o‘zaro munosabatlar, uni shakllantirish, bu jarayonda o‘qituvchining roli keng o‘rganilgan tadqiqotlar O‘zbekistonda professor M.G. Davletshin rahbarligida bajarildi.

M.G. Davletshin jamoa va guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o‘rganish sotsiometriya konsepsiysi asosida olib borilgandagina haqiqiy natijalarga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. “Guruhiy jarayonlarda shaxslararo munosabat va bu munosabatlarning mazmuni, motivlari, guruh qadriyatlari va normasi yetakchi rol o‘ynaydi”, - deb ko‘rsatadi.

F.S.Ismagilova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchi va talabalar jamoasida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar va muloqot salbiy tus olmasligi uchun guruhlarda doimo o‘quv-ishbilarmonlik o‘yinlari va bahslar o‘tkazish bilan jamoa a’zolari orasidagi har qanday muammoni birgalikda hal qilishga o‘rgatish mumkin.

Demak, o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlash, topshiriqlari birgalikda bajarishga undash ham guruh ichidagi psixologik iqlimi yaxshilashga yordam beradi va shaxslararo munosabatlar jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

T.Hamroqulov va Z.M.Muratxonovalar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotida o‘quvchi shaxsiga hurmat, o‘zini uning o‘rniga qo‘ya olish, o‘z his-tuyg‘usini boshqara olish zarurligini, shuningdek, “a’lo” va “yaxshi” baholar bilan o‘qiyotgan o‘quvchilar tengdoshlari orasida eng ko‘p hurmat va e’tiborga ega ekanligini ko‘rsatadilar.

Professor R.Z.Gaynutdinov talabalar guruhlarda muloqotning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganar ekan, tajribalarda boshlang‘ich kurslardan boshlab kasbiy muloqot malakalarini egallahning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi. G.Z.Gaynutdinov ilmiy tadqiqotlarda ko‘pchilik o‘qituvchilarning ongida eski stereotipler o‘z kasbi haqida noto‘g‘ri fikrlar mavjudligi, tekshirishlarda faqat 69 foiz o‘qituvchilargina maktabdagisi o‘zgarishlarni, yangilikni qabul qilishga tayyor ekanligini, qolganlar hali “bilish konservativizmi” asiri ekanligi aniqlangan. Tadqiqotchining takidlshicha zamonaviy o‘qituvchi maktabdagisi yangililarni qabul qilishga har tomonlama tayyor bo‘lishi, dars jarayonida o‘qituvchilar bilan xamkorlik qila olishi muximdir.

Xorij psixologiyasida shaxslararo munosabatlar masalasi eng ko‘p o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi.

Birinchi marta “munosabatlar” tushunchasi A. F. Lazurskiy tomonidan ilgari surildi. U o‘zining “shaxs konsepsiysi”ni ishlab chiqdi. Uning shaxs konsepsiyasida insonni o‘rganishda asosiy tushuncha “shaxsning har xil tashqi patogenlarga munosabati” edi.

Rossiyada o‘zaro munosabatlar psixologiyasi sohasida Myasishchevni alohida takidlash mumkin. “O‘zaro munosabatlar muammosi psixologiyada katta o‘rin egallaydi, bizning mamlakatimizda u asosan V. N. Myasishchev (Myasishchev, 1949) asarlarida ishlab chiqilgan. O‘zaro munosabatlarni o‘rnatish yanada umumiy uslubiy printsipni amalga oshirishni anglatadi — tabiat ob’ektlarini atrof-muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish. Myasishchevning so‘zlariga ko‘ra: “Shaxs uchun bu aloqa munosabatlarga aylanadi, chunki inson bu aloqada sub’ekt, bajaruvchi sifatida berilgan va shuning uchun uning dunyo bilan aloqasida aloqa ob’ektlarining roli, qat’iy taqsimlangan”. [2, 53-b]

Fransuz psixologi P.Janening fikriga ko‘ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg‘ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida xatti-harakatni tushunadi, bu esa kishnining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta’kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.[3, 65-b]

Olimlarning ta’kidlashicha, bolaning birgalikdagi faoliyatdan qoniqish darajasi, jamoada uning hissiy afzalliklari borligidadir, bu boshlang‘ich maktabda shaxslararo munosabatlarning ko‘rsatkichlaridan biridir.

Shaxslararo munosabatlar ayniqsa bolada o‘smir yoshida muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

D. I. Feldshteyn ko‘rsatganidek, o‘smirlarning atigi 15 foizi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan guruhli muloqotga intilishni da’vo qilishgan, aslida esa bunday aloqa shaklining haqiqiy mavjudligi 11-15 yoshli bolalarning 56 foizida qayd etilgan. Buning sababi shundaki, aksariyat o‘sirinlar afzal ko‘rgan ijtimoiy yo‘naltirilgan aloqa shakliga bo‘lgan ehtiyoj ko‘pincha qondirilmaydi. Shuning uchun ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan guruhlarda muloqot qilish zarurligini qondirishga majbur. [5, 173-b]

Bunga asosiy sabab, e’tiborning yetishmasligi, ota-onaning farzandiga yetarlicha vaqt ajratmasligi, o‘smir fikrlarining kattalar tomonidan qo‘llab quvvatlanmasligi, ularga nisbatan ishonchszlik bilan qaralashi va boshqa turli omillar bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi fikrdan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘quvchining shaxslararo munosabatlarga qay darajada kirishishida o‘qituvchining roli muhim hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan munosabat o‘rnatayotganda o‘quvchining individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi va unga turli talablarni qo‘yishi kerak bo‘ladi. Shundagina o‘quvchida o‘ziga ishonch va darslarga qiziqish shakllanib boradi. Jamoaviy munosabatlarga ham asta-sekin moslashib boradi.

Date: 17th June-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Turon-iqbol, 2006.
2. Андреева Г.М. Социальная психологияю Учебник для высших учебных заведениию. – М.: Аспект прессб 2001
3. Nishanova Z., Qurbanova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperem ental psixologiya: o‘quv qo‘llanma – T.: Tafakkur-Bo‘stoni. 2011.
4. Д.И. Фельдштейн. Проблемы возрастной и педагогической психологии. – М.: 1995.
5. Е. П. Ильин. Психология общения и межличностных отношений. — СПб.: Питер, 2009

